

**INNOVATSION SALOHİYATNING MILLIY IQTISODIYOTLAR
RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI: QIYOSIY IQTISODIY-
EMPIRIK TAHLIL**

Allayev Sarvar Erkin o'g'li

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti

Xalqaro moliya va investitsiya kafedrasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

(UWED) +998773228810

Abstract

This thesis examines the impact of innovative potential on the competitiveness of national economies through a comparative economic-empirical analysis. The theoretical foundations of national competitiveness are systematized on the basis of M. Porter's "Diamond" model and the works of P. Krugman, D. Cho, S. Berger and other leading scholars, and the relationship between innovative potential and competitiveness is examined using the Global Innovation Index (GII) and dynamic panel data methods. The analysis shows that R&D expenditure, human capital and trade openness are the key determinants of economic growth, while Uzbekistan, despite improving its GII ranking, still faces a persistent gap between innovation inputs and outputs. The thesis concludes with practical recommendations for strengthening Uzbekistan's innovative potential.

Keywords: innovative potential, national competitiveness, Global Innovation Index, panel data analysis, human capital, R&D, Uzbekistan

Аннотация

В тезисе рассматривается влияние инновационного потенциала на конкурентоспособность национальных экономик на основе сравнительного экономико-эмпирического анализа. Систематизированы теоретические

основы национальной конкурентоспособности на основе модели «ромба» М. Портера, а также работ П. Кругмана, Д. Чо, С. Бергера и других ведущих учёных; взаимосвязь между инновационным потенциалом и конкурентоспособностью изучена с применением Индекса глобальной инновации (ГИИ) и методов динамических панельных данных. Анализ показывает, что расходы на НИОКР, человеческий капитал и торговая открытость являются ключевыми факторами экономического роста, тогда как Узбекистан, несмотря на улучшение позиций в рейтинге ГИИ, сохраняет разрыв между инновационными затратами и результатами. В заключение предлагаются практические рекомендации по укреплению инновационного потенциала Узбекистана.

Ключевые слова: инновационный потенциал, национальная конкурентоспособность, Индекс глобальной инновации, панельный анализ, человеческий капитал, НИОКР, Узбекистан

Annotatsiya

Ushbu tezisdan innovatsion salohiyatning milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligiga ta'siri qiyosiy iqtisodiy-empirik tahlil asosida o'rganiladi. M. Porterning "Olmos" modeli, shuningdek P. Krugman, D. Cho, S. Berger va boshqa yetakchi olimlarning qarashlari asosida milliy raqobatbardoshlikning nazariy asoslari tizimlashtirilgan, innovatsion salohiyat va raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlik Global Innovation Index (ГИИ) ma'lumotlari va dinamik panel ma'lumotlar tahlili orqali baholangan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ilmiy-tadqiqot ishlari xarajatlari, inson kapitali va savdo erkinligi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari hisoblanadi, biroq O'zbekiston ГИИ reytingidagi o'rnini yaxshilashiga qaramay, innovatsion kiritishlar va natijalar o'rtasidagi tafovut hamon saqlanib qolmoqda. Tezis yakunida O'zbekistonning innovatsion salohiyatini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion salohiyat, milliy raqobatbardoshlik, Global

Innovation Index, panel ma'lumotlar tahlili, inson kapitali, ilmiy-tadqiqot ishlari, O'zbekiston

Kirish

Zamonaviy iqtisodiyotning global transformatsiyasi sharoitida innovatsion rivojlanish milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omilga aylandi. 2025-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan e'lon qilingan Global Innovation Index (GII) reytingida O'zbekiston 139 ta davlat orasida 79-o'rinni egallab, so'nggi o'n yillikda 43 pog'onaga ko'tarilgan hamda Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi o'ringa chiqqan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida GII reytingida TOP-50 ga kirish maqsadi belgilangan bo'lib, unga erishish uchun innovatsion salohiyatni tashkil etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va ularning raqobatbardoshlikka ta'sir mexanizmlarini aniqlash zarur.

Tezisning maqsadi - innovatsion salohiyatni baholashning nazariy-metodologik asoslarini yoritish, tanlangan mamlakatlar tajribasi asosida qiyosiy tahlil o'tkazish hamda innovatsion salohiyatning O'zbekiston milliy iqtisodiyoti raqobatbardoshligiga ta'sirini ekonometrik jihatdan baholashdan iborat. Vazifalar: nazariy asoslarni tizimlashtirish; GII 2024-2025 reytingi asosida qiyosiy tahlil o'tkazish; panel ma'lumotlar regressiyasi orqali innovatsion salohiyat va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash; O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Innovatsion salohiyat va milliy raqobatbardoshlik: nazariy asoslar hamda xalqaro tajriba

M. Porter tomonidan ilgari surilgan raqobat ustunliklarining "Olmos" modeliga ko'ra, milliy raqobatbardoshlik tabiiy resurslar bilan emas, balki sanoat va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantiruvchi o'zaro bog'liq omillar tizimi orqali

shakllanadi¹. J. Shumpeterning fikricha, innovatsiya raqobatbardoshlikning asosiy manbai bo'lib, u yangi mahsulot, jarayon va biznes modellari orqali bozor ustunligini ta'minlaydi, kuchli raqobat muhiti esa korxonalarni doimiy innovatsiyaga undaydi - shu tariqa "innovatsion-raqobatbardoshlik sikli" yuzaga keladi².

Innovatsion salohiyatni baholashning eng nufuzli xalqaro tizimi - WIPO tomonidan har yili chop etiladigan Global Innovation Index (GII) bo'lib, u 133–139 ta iqtisodiyotni 78 ta indikator asosida "kiritishlar" (inputs) va "natijalar" (outputs) muvozanati orqali baholaydi³. GII 2024 reytingida innovatsion yetakchilik yuqori daromadli davlatlarda to'plangan: Shveytsariya (1-o'rin, 67,5 ball) 14 yildan buyon reytingni boshqarib kelmoqda, undan keyin Shvetsiya, AQSh va Singapur turadi. O'rta daromadli davlatlar orasida Xitoy (11-o'rin) top-30 taligiga kirgan yagona o'rta daromadli iqtisodiyot hisoblanadi.

Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston yetakchilik qilib (39-o'rin), undan keyin Eron (64-o'rin), Qozog'iston (78-o'rin), O'zbekiston (83-o'rin, 2024) kelgan. Quyidagi jadvalda O'zbekistonning GII reytingidagi dinamikasi keltirilgan.

Yil	GII o'rne	Innovatsion kiritishlar (o'rne)	Innovatsion natijalar (o'rne)
2020	93	81	118
2022	82	68	91
2024	83	71	91
2025	79 (139 ta davlat, MOda 1- o'rin)	69	92

Jadval 1. O'zbekistonning GII reytingidagi dinamikasi (2020–2025)

¹Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.

²Shumpeter, Y. (1942). Kapitalizm, sotsializm va demokratiya. Nyu-York: Harper & Brothers.

³WIPO (2024). Global Innovation Index 2024. World Intellectual Property Organization, Geneva.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston innovatsion kiritishlar bo'yicha nisbatan yaxshi natijaga ega bo'lsa-da (2025-yilda 69-o'rin), innovatsion natijalar bo'yicha sezilarli orqada qolmoqda (92-o'rin). Bu tafovut mamlakatning innovatsion resurslarni amaliy natijalarga to'liq aylantira olmayotganini ko'rsatadi - shu bilan birga, O'zbekiston o'z daromad darajasiga nisbatan yuqori natijalarga erishgani uchun ketma-ket uchinchi yil "innovatsion samaradorlikni oshiruvchi" (innovation overperformer) davlatlar qatoriga kiritilgan⁴.

O'zbekiston ilmiy-tadqiqot ishlariga YaIMning atigi 0,16–0,2 foizini ajratadi, bu past-o'rta daromadli davlatlar o'rtacha ko'rsatkichidan taxminan 2,5 barobar past. Shu bilan birga, startap ekotizimi jadal rivojlanmoqda: StartupBlink Global Startup Ecosystem Index 2026 reytingiga ko'ra, O'zbekiston 19 pog'onaga ko'tarilib 79-o'rinni egalladi, yillik o'sish sur'ati +227,3 foizni tashkil etib, mamlakat "Yil mamlakati 2026" deb e'tirof etildi. IT Park rezidentlari soni 2800 nafardan oshdi, IT xizmatlari eksporti taxminan 1 mlrd dollarga yetdi, venchur fondlar soni 11 taga, jalb qilingan venchur investitsiyalar hajmi 145 mln dollarga yetdi.

Innovatsion salohiyatning raqobatbardoshlikka empirik ta'siri va O'zbekiston uchun tavsiyalar

Innovatsion salohiyat va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik 22 ta iqtisodiyot bo'yicha 2009–2021-yillar uchun System GMM (Arellano-Bover/Blundell-Bond) usulida o'tkazilgan dinamik panel ma'lumotlar tahlili orqali baholandi⁵. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

O'zgaruvchi	Koeffitsient (β)	p-qiymat	Ta'sir yo'nalishi
Ilmiy-tadqiqot ishlari xarajatlari (YaIMga nisbatan)	0.382	0.001	Ijobiy
O'rtacha ta'lim yillari	0.251	0.004	Ijobiy

⁴WIPO (2024). Global Innovation Index 2024 – Uzbekistan Country Profile. — URL: <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2024/uz.pdf>

⁵Koc, S., Uctu, R., Essop, H., & Mercan, B. (2026). The impact of innovation on economic growth: A dynamic panel data analysis using system GMM approach. International Journal of Innovation Studies, 10(1), 20.

Savdo erkinligi indeksi	0.198	0.008	Ijobiy
GII umumiy indeksi	0.098–0.156	< 0.05	Ijobiy
Erta bosqichdagi tadbirkorlik faolligi	-0.142	0.031	Salbiy

Jadval 2. Innovatsion salohiyat ko'rsatkichlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri (panel ma'lumotlar regressiyasi natijalari)

Natijalarga ko'ra, ilmiy-tadqiqot ishlari xarajatlarining YaIMga nisbatan 1 foizga o'sishi iqtisodiy o'sishni o'rtacha 0,382 foizga oshiradi - bu eng kuchli ijobiy ta'sir bo'lib, Romer (1990) va Grossman-Helpman (1991)ning endogen o'sish nazariyalarini tasdiqlaydi⁶. Inson kapitali ($\beta=0,251$) va savdo erkinligi ($\beta=0,198$) ham statistik ahamiyatli ijobiy ta'sirga ega. GII indeksining 1 ballga o'sishi esa iqtisodiy o'sishni 0,098–0,156 foizga oshiradi, bu innovatsion salohiyatning raqobatbardoshlikka bevosita ta'sirini tasdiqlaydi.

Olib borilgan tahlil asosida O'zbekiston uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi: (1) ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat va xususiy sektor investitsiyalarini YaIMning kamida 1 foiziga yetkazish hamda soliq imtiyozlari orqali biznes-sektorni R&D faoliyatiga jalb qilish; (2) universitet-sanoat hamkorligini kuchaytirish va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini (jumladan, spin-off kompaniyalar) rivojlantirish; (3) startup va venchur ekotizimini yanada kengaytirish, 2030-yilga qadar startaplar sonini 5 mingga yetkazish; (4) sun'iy intellekt va raqamli infratuzilmani rivojlantirish; (5) GII indikatorlari bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan GII TOP-50 maqsadiga erishish va milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion salohiyat milliy

⁶Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. Journal of Political Economy, 98(5, Part 2), S71–S102.

<https://scientific-jl.com/>

raqobatbardoshlikning asosiy va statistik jihatdan ahamiyatli omili hisoblanadi - ilmiy-tadqiqot ishlari xarajatlari, inson kapitali va savdo erkinligi iqtisodiy o'sishga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida aniqlandi. O'zbekiston so'nggi o'n yillikda GII reytingida 43 pog'onaga ko'tarilgan, biroq innovatsion kiritishlar va natijalar o'rtasidagi tafovut hamon saqlanib qolmoqda, bu esa mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini bildiradi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonning global innovatsion maydondagi raqobatbardoshligi ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalarni oshirish, biznes-sektorning innovatsion faolligini rag'batlantirish, inson kapitalini rivojlantirish va institutsional muhitni takomillashtirishning uyg'un birikuvini orqali barqaror o'sish traektoriyasiga chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
2. Schumpeter, J.A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. New York: Harper & Brothers.
3. WIPO (2024). Global Innovation Index 2024: Unlocking the Promise of Social Entrepreneurship (17th ed.). Geneva: World Intellectual Property Organization.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (2025). Global innovatsiya indeksining 2025-yilgi natijalariga ko'ra O'zbekiston 79-o'rinda. - URL: <https://gov.uz/oz/innovation/news/view/86181>
5. Koc, S., Uctu, R., Essop, H., & Mercan, B. (2026). The impact of innovation on economic growth: A dynamic panel data analysis using system GMM approach. International Journal of Innovation Studies, 10(1), 20.
6. Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. Journal of Political Economy, 98(5, Part 2), S71–S102.

7. StartupBlink (2026). Global Startup Ecosystem Index 2026. - URL:
<https://www.startupblink.com/reports/global-startup-ecosystem-index-2026>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). "O'zbekiston - 2030"
strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmon. 2023-yil 11-sentyabr. - URL:
<https://lex.uz/uz/docs/-6600413>